XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 12-fevral VII-6-14-8-119-K/25 Sherobod tumani

Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI.

1. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Akramov)ning O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi VII-4-10-8-0-K/25-soni qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **Tuman Moliya bo‘limi (O.Absayev), tuman soliq inspeksiyasi (B.Akramov)ga:**

-O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 35,2 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 330 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli “O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonunida Surxondaryo viloyati Sherobod tumani bo'ёyicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun **45760,0 ming.so'm** hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun **369.60 so'm** bazaviy soliq stavkalari belgilanishi nazarda tutilganligini ma'lum qilgan.

- xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla fuqarolar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Toshtemirov) va “Sherobod hayoti” gazetasi taxririyati (P.Muhammadiyev) mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29–dekabrdagi Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqidagi VI-77-262-8-119-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari (U.Xamrayev), xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Choriyev) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi CHORIYEV ABDUZOIR
XXX

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2025-yil 12-fevraldagi
VII-6-14-8-119-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumanidagi mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

2025- yil

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Balxiguzar MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
2	Bahor MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
3	Bog‘iobod MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
4	Boybuloq MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
5	Boyqishloq MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
6	Buyuk ipak yo‘li MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
7	Vandob MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
8	Galaguzar MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
9	G‘ambur MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
10	Guliston MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
11	Gulchinor MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
12	G‘urjak-1 MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
13	G‘urjak-2 MFY	0,80	36 608 000	0,76	281
14	G‘o‘rin-Gilambob MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
15	Dehqonariq	0,80	36 608 000	0,81	300

	MFY				
16	Do‘stlik MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
17	Yoshlik MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
18	Zarabog‘ MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
19	Istiqbol MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
20	Katta hayot MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
21	Kattabog‘ MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
22	Qizilolma MFY	0,80	36 608 000	0,76	281
23	Qishloqbozor MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
24	Qorabog‘ MFY	0,80	36 608 000	0,76	281
25	Qulluqsho MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
26	Qo‘rg‘on MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
27	Majnuntol MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
28	Mehnatobod MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
29	Mehrobod MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
30	Navbur MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
31	Nurtepa MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
32	Oyinli MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
33	Oqtepa MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
34	Oltinvoha MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
35	Poshxurt MFY	0,80	36 608 000	0,76	281
36	Taroqli MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
37	Uzunsoy MFY	0,80	36 608 000	0,76	281
38	Uch yog‘och MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
39	Hakimobod MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
40	Xo‘jaqiya-1 MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
41	Xo‘jaqiya-2 MFY	0,80	36 608 000	0,81	300

42	Xo‘jgi MFY	0,95	43 472 000	0,92	340
43	Chag‘atoy MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
44	Chorbog‘ MFY	0,80	36 608 000	0,77	285
45	Cho‘yinchi MFY	0,80	36 608 000	0,81	300
46	Chuqurko‘l MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
47	Cho‘michli MFY	0,80	36 608 000	0,80	296
48	Sherobod MFY	0,80	36 608 000	0,80	296